
“USTOZ” MAHALLASINING YOSHLARIDAN IBORAT JAMOA PESHQADAM

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishiga, xususan, sportning mini-futbol va futbol turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni erta aniqlash maqsadida start olgan Davlat xavfsizlik xizmati kubogi uchun futbol bo'yicha Oltiariq tuman birinchiligi bo'lib o'tdi.



Final bosqichida sektorlar o'rtasida g'oliblikni qo'lga kiritgan “Ko'lbo'yicha” va “Ustoz” mahallalaridagi yoshlardan iborat jamoalar tuman markaziy o'yingohida to'p surdilar.

Murosasiz bahslarda “Ustoz” mahallasining yoshlari peshqadamlikni qo'ldan boy bermay, 3:1 hisobida mutloq g'oliblikni qo'lga kiritdi va musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-26 20:41:51